



## QADIMGI YUNONISTON JAMIYATI TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY HARAKATCHANLIK OMILLAR

Usmanova Shohsanam., Igamberdiyev Doniyorjon., Raxmonov  
Mirjalol., Shavkatbekov Omadbek., Mo'ydinov Hushnubek

*Andijon davlat pedagogika instituti*

Maqola haqida ma'lumot  
Qabul qilingan: 02.06.2024  
Qayta qabul : 10.06.2024  
Saytda mavjud : 12.06.2024

Muallif (lar)  
Sh. Usmanova  
D. Igamberdiyev  
M. Raxmonov  
O. Shavkatbekov  
\*H. Mo'ydinov



Muallif bilan aloqa  
[sanjarsattarov948@gmail.com](mailto:sanjarsattarov948@gmail.com)

© Sh.Usmanova va boshqalar  
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:  
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti  
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya.** Ijtimoiy harakatchanlik- bu ijtimoiy qatlamning o'zgarishidir. Ijtimoiy qatlamning bir bosqichdan boshqa bir bosqichga o'tishi ijtimoiy harakatchanlik sanaladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy harakatchanlik, qadimgi Yunoniston, jamiyat taraqqiyoti

**Абстрактный.** Социальная мобильность – это смена социального класса. Переход социального слоя из одной стадии в другую называют социальной мобильностью.

**Ключевые слова:** Социальная мобильность, Древняя Греция, социальное развитие.

**Abstract.** Social mobility is a change in social class. The transition of a social stratum from one stage to another is considered social mobility.

**Key words:** Social mobility, ancient Greece, social development

Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan ulushiga bog'liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoi guruhlariga ajralishining negizidir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o'zaro bog'likligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir.

Qadimgi Yunoniston taraqqiyotida ijtimoiy harakatchanlik omillari haqida so'z olib borar ekanmiz, avvalo ijtimoiy harakatchanlik tushunchasiga to'xtalib o'tish lozim. Ijtimoiy harakatchanlik- bu ijtimoiy qatlamning o'zgarishi hisoblanadi. Ijtimoiy harakatchanlikka misollarni uzoqdan izlash shart emas. Inson oddiy maktab o'quvchisi sifatida ijtimoiy harakatini boshlaydi va u talaba bo'lganida - ijtimoiy harakatchanlik amalga oshgan bo'ladi.

Qadimgi yunon falsafasi miloddan avvalgi VI asrda, qadimgi Yunonistonning

qadimgi aholisi sharqdan vayron qiluvchi bosqinlarni qaytarish uchun kurash olib borgan bir paytda paydo bo'lgan. Yunon falsafasi butun davr mobaynida davom etdi. Ellinizm davri va davr unda Yunoniston va yunonlarda yashovchi ko'pchilik yerlar tarkibiga kirgan Rim imperiyasi. Falsafa aql yordamida dunyodan mantiqiy chiqish uchun ishlatilgan. Unda turli xil mavzular, shu jumladan astronomiya, siyosiy falsafa, axloq qoidalari, metafizika, ontologiya, mantiq, biologiya, ritorika va estetika. Yunon falsafasi ko'p narsalarga ta'sir ko'rsatdi G'arb madaniyati tashkil topganidan beri. Alfred Nort Uaytxed bir marta ta'kidlagan: " Eng xavfsiz umumiy tavsifi Yevropa falsafiy an'anasi Aflotunning izohlari qatoridan iborat ".

#### Arxeologik

ma'lumotlarga ko'ra, Yunoniston hududida odamlar paleolit davridan yashab kelmoqda. Xalkidika yarim orolidan neandertal odamining bosh suyagi chiqqan. Neolit davrida Yunoniston aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirgan. Yunonistonning jez davri madaniyati shartli ravishda Kritmiken madaniyati yoki Egey madaniyati deb atalgan. Miloddan avvalgi 3-ming yilliqda Yunoniston etnik tarkibi rangbarang (pelasglar, leleqlar va boshqalar) bo'lgan; ularni

protoyunon qabilalari — axeylar, ioniyaliklar siqib chiqarib o‘z tarkiblariga singdirib yuborganlar. Miloddan avvalgi taxminan 20—17-asrlarda Krit orolida axeylarning ilk davlatlari (Knos, Fest, AgiaTriada, Mikena, Tirinf, Pilos va boshqalar) barpo etilgan. Miloddan avvalgi taxminan 1260-yil Mikena, Tirinf va boshqalar davlatlar Troyani bosib olib, uni vayron etishgan (qarang Troya urushi). Doriy qabilalarining kirib kelishi (miloddan avvalgi taxminan 1200 yil) oqibatida davlatlar parchalanib, urug‘chilik munosabatlari jonlangan. Miloddan avvalgi 9-asrga kelib Shimoliy Yunoniston da — eoliylar, O‘rta Yunoniston va Peloponnesda — doriylar, Attika va orollarda — ioniyaliklar istiqomat qilgan: 8—6-asrlarda yunonlar O‘rta dengiz, Marmar va Qora dengiz sohillarini kolonizatsiya qilganlar. Bu davrda Yunonistonda polislar (shahar davlatlar) shakllangan. Dehqonlar va hunarmandlarning urug‘ zodagonlari bilan kurashi natijasiga qarab polisdagi davlat hokimiyati yo demokratik (Afinada) yoxud oligarxik (Sparta, Krit orolida) tarzda bo‘lgan. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan polislar (Korinf, Afina va boshqalar) qulchilik keng tarqalgan; Sparta, Argos va boshqalarda urug‘chilik tuzumi qoldiqlari saqlanib qolgan. Miloddan avvalgi 6-asrda polislar Sparta boshchiligida Peloponnes ittifoqiga va Fiva rahbarligi ostida Beotiya ittifoqiga birlashganlar. 5— 4-asrlar polislarining eng ravnaq topgan davri sanaladi. U yunonfors urushlarida (500—

449) yunonlarning g‘alabasi natijasida Afinaning yuksalishi va Delos ittifoqining (Afina boshchiligida) barpo etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Perikl hukmronligi davri (443—429) Afina kuchqudratining eng kuchaygan, siyosiy tuzumning eng demokratlashgan va madaniyatning ravnaq topgan davri hisoblanadi. Afina Yunonistonning asosiy iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi, u dengizda hukmronlikni o‘z qo‘liga olgan.

Qadimgi yunon madaniyati inson badiiy tafakkurining shunday cho‘qqisiga chiqqanki, butun Yevropa xalqlari oz madaniyatlarini taraqqiy ettirishda mazkur xalq madaniyatiga etalon sifatida qaraganlar. Hatto diniy mutaassiblik hukmronlik qilgan Orta asrlarda ham Yevropa madaniyati qadimgi yunon madaniyatidan kuch olgan. Uyg‘onish davrida esa Yevropa xalqlari antik davr madaniyatidan madad olib butun Yevropani chulg‘ab olgan mutaassiblik va xurofotga qarshi kurashganlar. Qadimgi yunon madaniyatining taraqqiyot bosqichlari to‘g‘risida to‘liqroq tasavvurga ega bolish uchun uni davriylashtirib o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir tarixiy-madaniy bosqichda bir-biridan farqlanib turadigan mazmunan boy va g‘oyaviy jihatdan mukammal madaniy boyliklar yaratilganligi ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Yunonistonda dastlab quldorlik tuzumi avj olgan bo'lib, insonlar orasida tabaqalantirish kuchayib borgan. Ta'lim sohasida ham tabaqalashtirilgan holda alohida maktablar tashkil etilgan. Shunday bo'lsada yunon diyorida ko'plab faylasuflar yetishib chiqqan. Ilm-fan ham

yetarli darajada yuksalgan. Suqrot kabi mashxur yunon faylasuflarining asarlari hali hanuz ilm-fan sohasida yuksak baholanib kelmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T., "Sharq", 2004 yil.
2. J. Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. - T., 2001 yil.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupovning umumiy tahrir ostida. - T., "Sharq", 1999 yil.
4. Falsafa asoslari. Axmedova M. va V.S. Xon tomonidan tahrirlangan). - T., tahrir. "Mehnat", 2004 yil.
5. Falsafa (Matbua Axmedovaning umumiy tahriri ostida) - T., "O'zbekiston filasouflari Milliy jamiyati" nashriyoti, 2006 yil.